

Vaxobova Baxtigul Valijon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston hududini bosib olish jarayoni kuchaydi va natijada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Bu davr Turkiston xalqlari tarixida mustamlakachilik siyosatining kuchayishi, harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimining joriy qilinishi hamda iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Ushbu maqolada Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi, Rossiya imperiyasining boshqaruv siyosati, harbiy-ma'muriy tizimi, iqtisodiy islohotlari va mahalliy aholiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, mustamlakachilik siyosatiga qarshi xalq harakatlari, jadidchilik faoliyati va milliy uyg'onish jarayonlari haqida ham batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'z

ma'muriy, Yettisuv, "vabo isyoni", Muhammadali Eshon, general-gubernator, sud, uyezd.

Аннотация

Во второй половине XIX века процесс захвата территории Туркестана Российской империей усилился, в результате чего было создано Туркестанское генерал-губернаторство. Этот период в истории народов Туркестана характеризуется усилением колониальной политики, введением военно-административной системы управления, а также экономическими и культурными изменениями. В данной статье проанализированы создание Туркестанского генерал-губернаторства, политика управления Российской империи, военно-административная система, экономические реформы и их влияние на местное население. Также подробно освещены народные движения против колониальной политики, деятельность джадидизма и процессы национального возрождения.

Ключевые слова

административный, Джетысу, «чума восстание», Мухаммадали Эшон, генерал-губернатор, суд, уезд.

Annotation

In the second half of the 19th century, the process of the Russian Empire's conquest of the Turkestan region intensified, resulting in the establishment of the Turkestan General-Governorship. This period in the history of the peoples of Turkestan

is characterized by the strengthening of colonial policies, the introduction of a military-administrative governance system, as well as economic and cultural changes. This article analyzes the formation of the Turkestan General-Governorship, the governance policies of the Russian Empire, the military-administrative system, economic reforms, and their impact on the local population. Additionally, detailed information is provided about popular movements against colonial policies, Jadidism activities, and the processes of national awakening.

Keywords

administrative, Zhetysu, “plague rebellion,” Muhammadali Eshon, general-governor, court, uyezd.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan Markaziy Osiyoni bosib olish jarayoni kuchaydi. Bu davrda Turkiston hududi Rossiya imperiyasining muhim mustamlakasiga aylantirildi. Rossiya imperiyasi o‘z hukmronligini mustahkamlash maqsadida Turkiston o‘lkasida maxsus boshqaruv tizimini joriy etdi. Ana shu tizim tarixda Turkiston general-gubernatorligi nomi bilan mashhurdir. Turkiston general-gubernatorligi Rossiya imperiyasining siyosiy, iqtisodiy va harbiy manfaatlarini himoya qiluvchi boshqaruv markazi bo‘lib xizmat qildi. Turkiston general-gubernatorligi 1867-yilda tashkil etildi. Uning markazi Toshkent shahri etib belgilandi. General-gubernatorlikka cheklanmagan vakolatlar berildi. U harbiy, ma‘muriy, sud va moliyaviy masalalarni boshqarish huquqiga ega edi. Bu esa Turkiston o‘lkasida mustamlakachilik siyosatining kuchayishiga olib keldi. Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan boshqaruv siyosati mahalliy aholining manfaatlariga emas, balki imperiyaning iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga xizmat qilardi. Turkiston general-gubernatorligi davrida boshqaruv tizimi bir necha bosqichlardan iborat bo‘ldi. Dastlab harbiy boshqaruv kuchli bo‘lsa, keyinchalik ma‘muriy boshqaruv tizimi rivojlantirildi. Mahalliy aholi ustidan nazoratni kuchaytirish uchun yangi viloyatlar, uyezdlar va volostlar tashkil qilindi. Shu bilan birga, eski mahalliy boshqaruv tizimlari saqlab qolingandek ko‘rinsada, ular Rossiya imperiyasi manfaatlariga bo‘ysundirildi. Mazkur mavzuni o‘rganish bugungi kunda ham muhim hisoblanadi. Chunki Turkiston general-gubernatorligi davridagi boshqaruv siyosati mustamlakachilik mohiyatini, milliy davlatchilikka yetkazilgan zararlarni hamda xalqning ozodlik uchun olib borgan kurashlarini anglashda katta ahamiyatga ega.

Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olish siyosati XVIII asr oxirlaridan boshlangan bo‘lsa-da, XIX asrning ikkinchi yarmida bu jarayon ancha tezlashdi. Rossiya imperiyasi dastlab Qo‘qon xonligi hududlariga bostirib kirdi. 1865-yilda Toshkent shahri bosib olindi. Shundan so‘ng Rossiya imperiyasi Turkiston hududida mustahkam boshqaruv tizimini yaratishga kirishdi. 1867-yil 11-iyulda imperator Aleksandr II farmoni bilan Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi.

Uning tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari kiritildi. Keyinchalik Samarqand, Fargʻona va Kaspiyorti viloyatlari ham qoʻshildi. General-gubernatorlik markazi Toshkent shahri boʻldi. Turkiston general-gubernatorligining birinchi general-gubernatori etib Konstantin Petrovich fon Kaufman tayinlandi. Konstantin Petrovich fon Kaufman Kaufman juda katta vakolatlarga ega edi. U harbiy qoʻshinlarni boshqarish, soliqlarni belgilash, sud ishlarini nazorat qilish va diplomatik aloqalarni yuritish huquqiga ega boʻlgan. Rossiya imperiyasi Turkistonni oddiy viloyat sifatida emas, balki harbiy-strategik hudud sifatida boshqardi. Shu sababli general-gubernatorlik tizimi harbiy boshqaruvga asoslandi. Turkiston oʻlkasi orqali Rossiya imperiyasi Hindiston va Sharq mamlakatlariga yaqinlashishni maqsad qilgan edi. Bundan tashqari, oʻlkaning tabiiy boyliklari va xomashyo manbalari Rossiya uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega boʻldi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi bilan mahalliy davlatlarning mustaqilligi asta-sekin tugatildi. Qoʻqon xonligi 1876-yilda butunlay tugatildi va uning oʻrnida Fargʻona viloyati tashkil etildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi rasman mustaqil boʻlib qolgan boʻlsa-da, amalda Rossiya protektoratiga aylantirildi. Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimi qatʼiy markazlashgan shaklda tashkil etildi. General-gubernator eng yuqori hokimiyat egasi boʻlib, u bevosita Rossiya imperatoriga boʻysungan. Turkiston oʻlkasidagi barcha muhim qarorlar general-gubernator tomonidan qabul qilingan.

Viloyatlarni harbiy gubernatorlar boshqargan. Har bir viloyat uyezdlarga, uyezdlar esa volostlarga boʻlingan. Mahalliy aholi yashaydigan qishloqlarda oqsoqollar faoliyat yuritgan. Biroq ular mustaqil emas edi va Rossiya maʼmurlarining nazorati ostida ishlagan. Rossiya imperiyasi mahalliy boshqaruv tizimlarini qisman saqlab qoldi. Bu orqali xalq orasida norozilikning keskin kuchayib ketishining oldini olish maqsad qilingan edi. Ammo amalda barcha hokimiyat rus maʼmurlari qoʻlida edi. Turkiston oʻlkasida sud tizimi ham mustamlakachilik ruhida tashkil etildi. Rus aholisi uchun imperiya qonunlari amal qilgan boʻlsa, mahalliy aholiga shariat va odat qonunlari qisman saqlab qolindi. Biroq bu sudlar ham general-gubernatorlik maʼmuriyati tomonidan nazorat qilinardi. Boshqaruv tizimining asosiy maqsadi mahalliy aholining siyosiy faolligini cheklash va Rossiya hukmronligini mustahkamlashdan iborat edi. Shu sababli barcha muhim lavozimlarga rus amaldorlari tayinlangan. Turkiston general-gubernatorligi harbiy boshqaruv asosida faoliyat yuritdi. Rossiya imperiyasi Turkistonni strategik hudud deb bilganligi sababli bu yerda katta harbiy kuch saqlagan. Harbiy garnizonlar Toshkent, Samarqand, Andijon, Qoʻqon va boshqa shaharlarda joylashtirildi. Harbiy boshqaruv siyosatining asosiy vazifasi mustamlakachilik tartiblarini himoya qilish edi. Mahalliy aholining qoʻzgʻolonlari shafqatsiz bostirilgan. 1873-yildagi Xiva yurishi, 1875–1876-yillardagi Qoʻqon qoʻzgʻolonlari va 1898-yildagi Andijon qoʻzgʻoloni bunga misol boʻla oladi. 1898-yilda Muhammadali Eshon boshchiligidagi Andijon qoʻzgʻoloni Rossiya hukumatiga qarshi eng yirik xalq

harakatlaridan biri bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilib, qatnashchilar qattiq jazolandi. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida harbiy istehkomlar va qal'alar qurdi. Temir yo'llarning barpo etilishi ham asosan harbiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlagan. Ayniqsa, Kaspiyorti temir yo'li Rossiya uchun strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Rossiya imperiyasi Turkistonda ma'muriy boshqaruvni mustahkamlash uchun ko'plab islohotlar amalga oshirdi. 1886-yilda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom" qabul qilindi. Ushbu nizom Turkiston general-gubernatorligining huquqiy asosini belgilab berdi. Nizomga ko'ra, general-gubernator juda katta vakolatlarga ega bo'ldi. U favqulodda holat e'lon qilish, surgun qilish va mahalliy aholini nazorat qilish huquqiga ega edi. Bu esa mustamlakachilik boshqaruvining yanada kuchayishiga olib keldi. Mahalliy amaldorlar Rossiya ma'murlariga to'liq bo'ysundirildi. Oqsoqollar va qozilar saylanadigan bo'lsa-da, ular rus ma'murlari tomonidan tasdiqlanardi. Shu sababli mahalliy boshqaruv tizimi mustaqil emas edi. Rossiya ma'muriyati Turkistonda ruslashtirish siyosatini ham olib bordi. Rus tilining mavqei oshirildi, rus maktablari ochildi va pravoslav dini targ'ib qilindi. Bu siyosat mahalliy xalqning milliy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Turkiston general-gubernatorligi davrida iqtisodiy siyosat Rossiya imperiyasining manfaatlariga xizmat qildi. O'lka Rossiyaning xomashyo bazasiga aylantirildi. Ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Amerikada fuqarolar urushi boshlanishi natijasida Rossiya paxta tanqisligiga duch kelgan edi. Shu sababli Turkistonda paxta yetishtirish kengaytirildi. Natijada oziq-ovqat ekinlari maydoni qisqarib, xalqning ahvoli yomonlashdi. Mahalliy aholiga turli soliqlar solindi. Yer solig'i, chorva solig'i va boshqa yig'imlar xalqning iqtisodiy ahvolini og'irlashtirdi. Rossiya savdogarlari va sanoatchilari Turkiston boyliklaridan keng foydalandi. Temir yo'llar qurilishi savdo aloqalarini kuchaytirgan bo'lsa-da, bu asosan Rossiya manfaatlariga uchun xizmat qilgan. Turkiston xomashyosi Rossiyaga olib ketilib, tayyor mahsulotlar qayta sotilgan. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi Turkistonda ko'plab qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Mahalliy aholi soliq siyosati, zulm va milliy kamsitishlarga qarshi kurash olib bordi. 1875-yilda Qo'qon xonligida yirik qo'zg'olon boshlandi. Po'latxon boshchiligidagi harakat Rossiya hukmronligiga qarshi qaratilgan edi. Biroq qo'zg'olon bostirildi va Qo'qon xonligi tugatildi.

1892-yilda Toshkentda "Vabo qo'zg'oloni" yuz berdi. Rossiya ma'muriyatining zo'ravonligi va adolatsiz siyosati xalq noroziligini kuchaytirgan edi. 1916-yildagi qo'zg'olon esa Turkiston tarixidagi eng yirik ozodlik harakatlaridan biri bo'ldi. Rossiya imperiyasining mahalliy aholini mardikorlikka olish haqidagi farmoni xalqning g'azabiga sabab bo'ldi. Qo'zg'olon shafqatsiz bostirilgan bo'lsa-da, u mustamlakachilikka qarshi umumxalq harakati sifatida tarixda qoldi. Turkiston general-gubernatorligi davri o'lka tarixida murakkab davr hisoblanadi. Bir tomondan, Rossiya imperiyasi temir yo'llar, yangi sanoat korxonalarini va aloqa tizimlarini

rivojlantirdi. Ikkinchi tomondan esa, bu o‘zgarishlar mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qildi. Mahalliy xalqning siyosiy huquqlari cheklab qo‘yildi. Milliy davlatchilik tizimi yemirildi. Iqtisodiy boyliklar Rossiya manfaatlarini yo‘lida ishlatildi. Shu bilan birga, xalq orasida milliy uyg‘onish jarayoni kuchaydi. Jadidchilik harakati va ozodlik kurashlari keyinchalik mustaqillik g‘oyalarining shakllanishiga asos bo‘ldi. Turkiston general-gubernatorligi davri xalqimiz tarixida mustamlakachilik zulmi va milliy ozodlik kurashi davri sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Turkiston general-gubernatorligi Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik boshqaruv tizimi edi. U 1867-yilda tashkil etilib, Turkiston o‘lkasini siyosiy, harbiy va iqtisodiy jihatdan nazorat qilishga xizmat qildi. General-gubernatorlik davrida barcha hokimiyat rus ma‘murlari qo‘lida jamlandi. Rossiya imperiyasi Turkistonda harbiy-ma‘muriy boshqaruv tizimini joriy etdi. Mahalliy boshqaruv organlari mustaqilligini yo‘qotdi. Soliq siyosati va iqtisodiy ekspluatatsiya xalq ahvolini og‘irlashtirdi. Ruslashtirish siyosati esa milliy qadriyatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Shunga qaramay, xalq ozodlik uchun kurashni davom ettirdi. Qo‘zg‘olonlar va jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Bugungi kunda Turkiston general-gubernatorligi tarixini o‘rganish mustamlakachilik siyosatining mohiyatini anglash, milliy davlatchilik tarixini chuqur bilish hamda ajdodlarimizning ozodlik yo‘lidagi kurashlarini qadrlashda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azamat Ziyo. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. Toshkent, 2000.
2. Sodiqov H. Turkiston tarixi. Toshkent, 2017.
3. Ahmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. Toshkent, 1991.
4. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi. Toshkent, 2012.
5. Haydarov Y. Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida. Toshkent, 2008.
6. Xoliqulov E. Jadidchilik harakati tarixi. Toshkent, 2019.
7. “Turkiston viloyatining gazetasi” materiallari.
8. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2005.